

JAMOL KAMOLNING “FAYLASUF” DOSTONI XUSUSIDA

Munisjon Hakimov

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti ilmiy xodimi*

Annotation

The article analyzes Jamal Kamal's epic "The Philosopher". The epic is about the great son of Uzbek, academician Ibrahim Mominov, and the artistic value of the epic, which tells about his life path, is revealed in the article.

Key words

epic, prototype, philosophy, religion, genre, plot, development of events, lyric digression, climax, monologue.

Jamol Kamolning “Faylasuf” dostoni shoir umrining so‘nggi yillarida yozilgan dostonlaridan biri. Unda o‘zbekning dunyoga mashhur faylasuf olimi, akademik Ibrohim Mo‘minov hayot yo‘li asos qilib olingan. Doston Ibrohim Mo‘minov tilidan yozilgan.

Biror yirik janrdagi ijod qilishdan avval shu mavzuda kichik janrdagi asarlar yaratish tajribasi ko‘plab qalam sohiblari ijodida uchraydi. Oybekning “Navoiy” romanini yozish uchun “Alisherning bolaligi” qissasi, “Guli va Navoiy” dostoni kabi asarlarni yaratganligi fikrimizni dalillaydi. Jamol Kamol ham “Faylasuf” dostonini yaratgunga qadar Ibrohim Mo‘minov haqida “Ibrohim Mo‘minov sabog‘i” kabi she‘ri va bir qancha maqolalarida olim haqidagi fikrlari, iliq xotiralarini bayon etar ekan, yirik janrdagi asariga zamin hozirlab keldi.

Ko‘nglim osmonida hamisha kunduz,

Yoniq yulduzlarning yo‘qdir sanog‘i.

Unda eng charog‘on, eng yorug‘ yulduz –

Ibrohim Mo‘minov sabog‘i!.. – [1, 164-b.]

deya 1981-yilda bitilgan she‘rida u iqrar keltirarkan, uning davomida allomaning haqiqat uchun kurashganligi, mutafakkirligi, g‘ayratli va chidamliligi, halolligi, vatanparvarligi, samimiyligi, mehribon va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz ekanligi kabi fazilatlarini nazmga soladi. “Faylasuf” dostonining mazmun mundarijasi ham ayni shu sifatlarni yoritish asosida shakllangan. Ya‘ni she‘rdagi ulug‘ fikrlar “Faylasuf” dostonida yanada kengaytirilib, qayta ishlangan variant kabi liro-epik usulda bayon qilingan” [2, 108].

Doston qahramonning dunyoga kelishi va uning qulog'iga kalima o'qilishi bilan boshlanadi. Ya'ni qahramon qalbida Alloh ishq urug'lanadi. U shu ishq bilan dunyoni taniydi:

*Avval Xudo kirdi ko'nglimga,
Keyin kirib kelding beado,
Ko'kda nuring, yerda sururing ila,
Ey dunyo, ey quyoshli dunyo! [7, 105-b.]*

Bu bilan shoir bo'lg'usi faylasufning kelajakda Haq va uning mo'jizasidan hikmat izlab, ezgulikka intilib yashashiga ishora qilmoqda. Lirik qahramon "Ey dunyo, ey quyoshli dunyo!" – deya xitob qilarkan, nido san'ati fikrning yanada ta'sirchan chiqishiga omil bo'lgan.

Lirik qahramonning bolalik ariqlari suvga to'la, uzumzor va o'rikzorlari ko'p qishloqda kechadi. Qishloqda u yalang oyoq kezib o't teradi, qo'y boqadi. Bu uning eng baxtli damlari edi. Maktabni bitirib oliygohga kirgach jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni anglay boshlaydi. Quloq qilish, qamash, surgun va quvg'un qilishlardan yurtning "jigari xun edi".

*Ko'rib, bildim, o'qib, angladim keyin,
Yurtim mustamlaka ekan, ajabo!
Boshimizda ekan qullik, qaramlik,
Xalqim erk-u huquqdan judo... [7, 107-b.]*

Ibrohim Mo'minov bolaligidan o'tkir zehni bo'la turib, nega talabalikka qadar ijtimoiy-siyosiy tanglikdan bexabar bo'lgan? Gap shundaki, maktab darsliklari kommunistik mafkura asosida shakllantirilgan va ularda yurtimizning shonli tarixi yashirilib, Ittifoq siyosati ko'z-ko'z qilingan. Farzandlar katta bo'lib, jamiyatdan xabardor bo'la boshlagach muammolarga duch kelishgan. Qolaversa, muallif doston syujeti talabidan kelib chiqib bolalikni beg'ubor va baxtiyor ko'rsatishga, muammoli hayotni keyinroqqa surishga qaror qilgan.

Dostonning ikkinchi qismi lirik qahramonning faylasuf bo'lib yetishishi haqida. Qahramon falsafa cho'qqisiga ko'tarilar ekan, muallif ham go'yo u bilan birga yurib yashashning mohiyati, inson va insoniylik, borliq va dunyo haqida fikr yuritadi. Unga ko'ra bu kabi savollarga javob beruvchi bilimning bosh asosi Qur'oni Karim va hadislardir. Shuningdek, Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Ulug'beklar asarlari qahramonni Sharq falsafasiga olib kirgan bo'lsa, Gegel, K. Marks, Lenin asarlari G'arb falsafasi bilan tanishtirgan. Uning uchun:

*Falsafa – dunyoning izohi demak,
Falsafa – insonning sharhi bayoni. [7, 109-b.]*

O'qish, izlanishlar asnosida faylasuf umumbashariy xulosalar hosil qiladi. Borliqni yaratuvchi bu – Alloh. Uni tanish – o'zlikni anglash. Barcha inson uning bandasi. Din ularni tartibga soluvchi. Bashariyatni ezgulikka, bezavollikka chorlovchi xulosalar dostonida o'ziga xos jarang sochadi:

Din, demak, bashariy dunyo ustidan Allohning ilohiy nazoratidir,

Insonning insonlik qadriyati ham avvalo dinidir, diyonatidir. [7, 110-b.]

Lirik qahramon tilidan jarang sochgan quyma xulosalar Jamol Kamol tafakkurida uzoq yillar pishitilgan deyish mumkin. «Din – tarix, din – tajriba, din – tarixiy ma’rifat va donishdir. Yolg’iz bugina emas. Din – mehr va shafqat, insof va diyonatdir, insoniyat o’zi ustidan o’zi o’rnatgan oliy nazoratdir...» [1, 40-b.], – degan edi suhbatlaridan birida u. Yoki shoir umrining oxirlarida yozilgan mana bu to’rtlikka e’tibor qaratsak:

Haq taolo gar birovga yaxshilikni istasa,

Bu haqiqatdir, anga din ilmini ko’rgay ravo.

Komil o’lgaymu kishi Parvardigorin bilmasa,

Ilmi din ham ta’lim-u tahsil ila bo’lgay raso... [7, 434-b.]

Demak, ijodkorga ko’ra din ilmi har kimga ham nasib etavermaydi. Din ilmisiz esa shaxs kamolotga erisha olmaydi. “Faylasuf” dostoni lirik qahramoni ham kamolotning yuksak pillapoyasiga ko’tarilar ekan, muallif uning bu yuksalishini din ilmisiz tasavvur eta olmaydi. Ilm yo’lida yuksalgan lirik qahramon insoniyatni baxtiyor ko’rishga bel bog’laydi.

Shu munavvar din-u diyonati-la,

Shu mukammal aqlu farosati-la

Nega baxtli bo’lmasin inson?

Vahiy yo’llar esa, Aql qo’llar esa,

Nechun kuch-qudratga to’lmasin inson? [7, 111-b.] –

deya mashaqqatli ishga sho’ng’iydi. Dostonning keyingi qismlari ana shu mashaqqatli umr yo’lidan hikoya qiladi. Uning qahramoni o’z davrining fuqarosi sifatida kommunist bo’ldi. Ammo vijdoniga qarshi bormadi, xalqini himoya qilar ekan, unga o’zligini anglatishda sho’roparastlar bilan olishdi. “Sen bizdan past” deganlarga:

Bir kuni qo’zg’alur tomirlarda qon,

Navbat yetar, dedim, O’zbekistonga,

Bir kuni aslini ko’rsatar Turon,

Ma’rifat nurini sochar jahonga... [7, 113-b.] –

deya baralla javob beradi. Sho’ro mafkurasi bilan, zulm va istibdodi bilan olishgan millatimizning fidoyi farzandlari ko’p bo’lgan, albatta. Akademik I.Mo’minovning ilm yo’lida zahmat chekib kurashgani ham uni millatparvar ziyolilar safiga qo’shdi. Dostondagi:

Bartolddek shovinist emasdi barcha,

Bertelsdek xolislar bor edi ancha,

O'shalar himoya etishdi bizni, [7, 113-b.] –

satrlari olimning rus xalqiga emas, shovinistlarga qarshi ekanligini namoyon etadi.

Lirik qahramon raqib bilan kurashar ekan, qon to'kish yo'lini tanlamaydi. Axir u olim – ziyoli. U kurashni, tarixni xolis yoritish, ilmiy asoslangan asarlar yaratish bilan davom ettirdi. Xiva xonligining bosib olinishi, Qo'qondagi qirg'in, Buxorodagi Frunze bosqini, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon kabi jadidlarning zamonaviy davlat qurish istagi uchun qatag'onga uchrashi masalalarini asosli yoritish bilan zimdan kurashdi. Chunki "Mutafakkir allomaning (I.Mo'minovning – M.H.) dunyoqarashiga Fitrat, A.Sa'diy, Ayniy va boshqa hur fikrli jadidlarning qatag'onga uchrashi katta ta'sir qilgan"[3, 20-b.]. Ammo NKVD chilar uni va xalqini tinch qo'yishmadi – dushman deb ko'rishdi. Sho'ro mafkurasining ayanchli basharasini shoir achchiq ifoda bilan shunday ochib beradi:

Dushman izlashardi qadamda,

Yovuzlikni ko'rishardi ep,

Dushman topishardi har damda,

Xalqni qirishardi xalq dushmani deb... [7, 115-b.]

To'sqinliklarga qaramay alloma ustoz milliy g'urur va o'zlikni anglatish yo'lida tinimsiz izlandi. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Bedil, Ahmad Donish kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodi haqida tadqiqotlar yaratdi, ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Dostonda bu voqealarni lirik qahramon obrazi esga oladi.

Dostonning keyingi qismida shoir kirish qismida ekspozitsiya tarzida qo'llagan lirik chekinishning:

Kecha bor, kunduz bor, quvonch bor, qayg'u,

To'y bilan aza bor, visol va hijron,

Yer-u osmon yana, olov bilan suv,

Insonlar qavmida yaxshi bor, yomon... [7, 117-b.]

satrlarini qayta keltiradi. Kirish qismida I.Mo'minovning kurashlar bilan kechgan taqdiriga ishora tarzida kelgan parchaning qayta qo'llanishi o'quvchini lirik qahramonning hayotidagi yangi ziddiyatlar boshlanishidan ogohlantiradi. Ya'ni voqealar rivoji olimning Amir Temur faoliyatiga oid tadqiqotlari taqdiri bilan bog'liq kechmishlar orqali davom etadi. Olimning jasorati bilan "Temur tuzuklari", "Zafarnoma" kabi asarlar nashr etiladi. Amir Temurning tarixiy xizmati ko'rsatib berildi. "Ibrohim Mo'minovning Amir Temur shaxsiyati, davlat va jamoat arbobi, buyuk sarkarda, davlatchilik asoschisi ekanligini yoritishining sababi uning qalbida sho'rolarga bo'lgan nafrat hissi bo'lib, sobiq sho'ro mafkurasiga zid ravishda milliy merosdagi o'zlik, adolat, erk, ozodlik, qadriyat, ma'rifat, tarixni talqin va targ'ib qilishi allomaning jadidlarning izdoshi, vorisi sifatida faoliyat yuritganligidan dalolat beradi" [3, 21-

b.]. Ibrohim Mo'minov faoliyatiga berilgan ushbu faktik baholar dostonida ham lirik qahramon tilidan badiiy talqin etilgan:

*Ellarni boyladi savdo-tijorat,
 Ilm rivoj topib, yuksaldi sanat.
 Basharning boshiga yorug' keldi kun,
 Yuz ochdi jahonga buyuk tamaddun...
 Barchasiga bois zakovat erdi,
 Temur joriy etgan adolat erdi... [7, 119-b.] –*

Faylasufning bunday xulosalari doston syujetida konfliktning kuchayishiga omil bo'lgan. Dostonida konfliktni kuchaytiruvchi bosh vosita – raqib nomi aynan ko'rsatilmaydi. Uning qiyofasi qahramonga qarshi harakatlarda umumlashma namoyon bo'la boradi. Ular bir kishimas: Moskva matbuotida ig'vo qiluvchilar, "jo'r bo'lishdi shotirlar", "o'zimizdan chiqqan «botirlar", "necha xusumatga to'la, ichi qora". Dostonida konfliktning umumlashma va, ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, tuzum miqyosdagi qudratga ega qilib berilishini qahramonning yelkasiga katta muammolar ortilganligi bilan izohlash mumkin. U maishiy masalalar girdobida emas, millat, insoniyat, ilm-fan oldidagi to'siqlarga qarshi harakat qiladi. "Tosh otuvchi"larga shogirdlar javob berish uchun ustozdan so'raganida u:

*Yo'q dedim, it hurar, o'tar karvon,
 Bizning javobimiz yangi kitoblar, [7, 120-b.] –*

deb jahlini tiyadi. Qahramonning bu javobidan uning keng qamrovli tafakkur sohibi ekanligi, mushohadakorligi ayonlashadi. Nutqida "it hurar, o'tar karvon" maqolining qo'llanishi uning xarakteriga xos bo'lgan bosiqlik, teran mushohadakorligidan tashqari, raqibdan ma'nan ancha ustun ekanligini ayon qilgan.

Shuningdek, dostonning sakkizinchi qismida bu g'animlar safiga kasallik ham qo'shiladi. Ya'ni qahramonni oyoq og'rig'i bezovta qiladi. Buyuk ustozga oyoqlarini tiqib davolanishi uchun bolaligi kechgan qumloqlardagi qumdan keltirishadi.

*Yo'q, sabrim tugadi,
 Jilvonga bordim,
 Yurakda limmo-lim sog'inchim,
 Silab erkaladim saksovullarni,
 Qum tepalar bo'ldi quvonchim. [7, 121-b.]*

Lirik qahramonning bu so'zlari uning qalbida bir umr Vatanga bo'lgan muhabbat jo'sh urganligini anglatadi. Vatanning saksovullari, qumtepalari uning ko'zini quvnatadi. Shoir go'yo kitobxonga Vatan sog'inchi uning boyliklari, bog'u-rog'lari bilan emas, kindik qonining

to'kilishi, bolalikdan mehr qo'yib katta bo'lishi bilan paydo bo'lishini uqtiradi. Bu hol o'quvchi yodiga ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar"[6], – degan o'gitini eslatgandek bo'ladi.

Lirik qahramon Ona yurt qumloqlarini kezib yurar ekan, shoir unga Xizr obrazini uchrashtiradi. Avliyo qahramonning kelajagidan bashorat qilib:

Yangi sinoatga shaylan, bolam,

Yangi mashaqqatga hozir bo'!.. [7, 122-b.] –

deya ogohlantiradi. Xizr xalq og'zaki va yozma adabiyotda keng qo'llanuvchi obraz bo'lib "qahramon taqdirini oldindan bashorat qilishi, uni mushkul ahvoldan xalos qilishi" [4, 22-b.] ma'lum. U "Faylasuf" dostonida ham lirik qahramonga ayni sifatda yo'l ko'rsatadi.

Badiiy asarlarda ijodkorlar qahramoniga yo'l ko'rsatish uchun turli usullarni qo'llashadi. Masalan, tush ko'rish, ustoz bilan suhbatlashish, ruhlarning ogohlantirishi kabilar. "Faylasuf" dostonida muallif bashoratchi sifatida bejizga Xizr tanlamagan. Birinchidan, xalqning mifologik qarashiga ko'ra Xizr cho'llar va kengliklarda uchrab insonlarga yo'l ko'rsatadi. Qolaversa, asar qahramoni alloma – ma'naviy yuksak shaxs. Shularni inobatga olgan muallif unga saviyasi xalqning tushunchasiga ko'ra ancha baland bo'lgan bashoratchi – Xizrni yo'liqtiradi. Ya'ni bu lirik qahramonning "maqomoti baland ekanligiga ishoradir"[5, 70-b.]. Ammo dostonida Xizr obrazi tor qamrovda qo'llangan. U bashorat qilish bilan cheklanib, lirik qahramonning mushkulini oson qilmaydi.

Faylasuf shifoxonada yotganida hamshira doktor unga Amerika dorisini buyurganligini aytadi. Bemor rad javobini berganida hamshira agar shprisni unga sanchmasa, ishdan haydalishi, ko'chada qolishini aytib yig'laydi. Bemor ignani sanchishga noiloj rozi bo'ladi, va holsizlanib jon taslim qiladi. Muallif mazkur voqealar rivojida doston kulminatsiyasini aks ettirgan.

Dostonida voqealar lirik qahramonning ichki kechinmalari emas, xotiralari tarzida berilganligi bois uni liro-epik doston deb aytish mumkin.

Asarda dialogik nutq deyarli qo'llanilmagani bois lirik qahramon nomi so'nggi monologda o'z tilidan bayon etiladi:

O'zimni, dunyoni,

Xudoni bildim,

Men – Ibrohim Mo'minov, faylasuf!.. [7, 125-b.]

Asar boshida keltirilgan olam → odam → Alloh uchligi asarni nihoyalab ham bergan. Ya'ni muallif nazdida alloma Ibrohim Mo'minov ana shu uchlik mag'zini chaqqan, unga amal qilgan shaxs. Uning hayot yo'lini bugungi avlodga, millatga ibrat qilib ko'rsatish uning

maqsadi. Doston ana shu maqsaddan kelib chiqib yaratilgan. Dostondagi dramatik voqealar jarayon tarzida emas, xotira tarzida berilganligi bois asarda dramatism yetmagan o'rinlar mavjud. Qolaversa, voqealarning muallif nutqidan emas, lirik qahramon nutqidan so'zlanishi ham bu imkoniyatni cheklagan. Ammo alloma hayotining islomiy g'oyalar bilan bog'liq holda yoritilishi, voqealarning sodda ifodalanishi, tilning ravonligi doston qimmatini oshirgan.

Undagi g'oyalar o'quvchida millat va uning o'zligini tanish, ozodlikka, ilm-fanga intilish kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamol Kamol. Saylanma. VII jildlik, I jild. – T.: Yangi asr avlodi. 2018.
2. Qarshiyev K. Jamol Kamol she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi. Filol. f. b. fals. dok. diss., 2022.
3. Ibotova N. Ibrohim Mo'minov ilmiy-falsafiy merosining umuminsoniy ahamiyati. Fals.f.b.fals.dok. diss.avtoref., 2023.
4. Nurmanov F. Xizr obrazining genezisi va uning o'zbek folkloridagi talqini. Filol. f.n. diss. avtoref. – T. 2007.
5. Rahmonova Z. Ishq, irfon va irshod. – T.: Tafakkur tomchilari, 2021.
6. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq>.
7. Jamol Kamol. Saylanma. VII jildlik, VII jild. – T.: Yangi asr avlodi, 2022.